

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11633323>

Bekjanova Feruza Foziljonovna

Oriental universiteti tarix yo`nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Pahlaviylar davri va bugungi kunda Eronlik ayollarning huquqlari ,siyosatdagi,oiladagi o`rni haqida qisqacha tavsiflanadi.*

KIRISH

Inqilobdan keyingi davlat siyosati ,shu jumladan Islom mafkurasi tomonidan o`rnatilgan ayollarning huquqlari va mavqeyi sohasi hamda Maxsi Amini o`limi bilan bog`liq "Ayol,Erkinlik,Ozodlik"shiori ostidagi namoyishlari tahlil qilinadi.Mamlakat hukumatining bu masalaga munosabati,xalqaro huquqiy tashkilotlarning fikri ko`rib chiqiladi.

Maqolaning dolzarbligi.Zamonaviy Eron siyosiy hayotida ro`y berayotgan asosiy tendensiyalarni tahlil qilish asosida qurilgan Eronning zamonaviy siyosiy tizimida ayollarning ishtiroki .

Maqolaning maqsadi.Bu davrdagi Eronning ayollar huquqlariga nisbatan davlat siyosatini o`rganadi hamda Pahlaviylar davri va Eron Islom Respublikasi davrini qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: *Hijob(parda), Rezanans,rezolyutsiya, konservatizm, trigger.*

ASOSIY QISM

"Ayol muhabbat ,sabr-toqat va fidoiylik timsoli" ,"Alloh taola insonni uning fazilatlarini aks etishi uchun yaratdi" M.Ahmadinejad.(1)

Eronda Paxlaviylar sulolasi(1925-1979)davrida,sanoat inqilobi va ayollarga keng huquqlar berilgan islohotlar davri sifatida tanilgan.Shox Rizo Paxlaviy davrida(1925-1941) 1935 yilda Ayollar Tehron Universitetida o`qish huquqini oldilar.Otasining islohotlarini o`g`li Muhammad Rizo Pahlaviy (1941-1978)davom ettirdi,1944 yildan boshlab boshlang`ich ta`lim majburiy bo`lib qoldi.Mamlakatda ayollar kongresslari tashkil etildi,unda Yaqin Sharq ayollari ishtirok etishdi.(2)

Biroq barcha islohotlar xam hayrihoh ma`noda amalga oshirilmagan.Xususan 1925 yilgacha mavjud bo`lgan har qanday ayollarning Inson huquqlari tashkilotlari ta`qiqlangan.(3)1936 yil Yanvarda "Ayollarga hijob kiyishni ta`qiqlovchi farmondan so`ng ,politsiya ayollarning ro`molini ommaviy ravishda yechishni boshladi.Bu esa o`sha davrdagi dindor Yoshi katta ayollarni jamiyatda yakkalanib ajralib qolishiga ,ularni qaramlikka olib keldi.1941 yil Qonun bekor qilindi. (3)

Ayollar mamlakatning siyosiy ijtimoiy hayotida ishtirok eta boshladilar.Endi ayollar o`z hohishlari bilan ta`lim olish va ishga joylashish imkoniyatiga ega bo`ldilar.Aholining

ma'lumotli ,ziyoli qatlami bo'lgan ayollar sinfi "Hijob o'rashga qarshi qonunni qo'llab quvvatladilar.(4)

Keyingi hukmdor kichik Muhammad Rizo Pahlaviy islohatlar siyosatini davom ettirdi, ayollarga ovoz berish imkoniyatini berdi. Tez fursatda bir nechta ayollar Eron parlamentida faoliyat olib bordilar. Vazirlar Maxkamasida ayol vazirlar va Sudya ayollar bor edi. 1967 yildan "Oilani himoya qilish to'grisidagi qonunlar kuchga kirdi. Xususan turmush qurgan ayollar va bolalar huquqlarini zo'ravonlikdan himoya qilish va ajrashgan ayollarning huquqlarini himoya qilish shular sirasiga kiradi. Agar ajralish uchun erkak "Taloq" so'zini aytgan bo'lsa, ikkala tomon ham sudga murojaat qilishlari shart edi. Bundan tashqari agar erkak boshqa bir ayolga uylanmoqchi bo'lsa, qonun bo'yicha u 1-xotining ruhsati bilan amalga oshirilgan.(5) Ayol erkak bilan nikohlangandan so'ng agar er hohlamasa, xotining uydan chiqishini ta'qiqlash huquqiga ham ega. Nikoh uchun minimal yosh ham ko'tarildi-13 yoshdan -18 yoshgacha, ammo qishloq joylarda erta nikohlar- 17 yoshga qadar davom etdi. 1971 yildagi ma'lumotlarga ko'ra 37% qizlar 13 yoshdan, 57% 14 va 18 yosh oralig'ida turmushga chiqqan.(6) 20 asrning 2-yarmidan boshlab Eronda ayollar siyosat, diplomatiya va sud tizimida muhim o'rinlarda faoliyat olib borgan.(7) O'sha davrda eng nufuzli ayollaridan biri ta'lim vaziri Farruxru Parsa, shuningdek "Inson huquqlari faoliyati" bo'yicha "Nobel" tinchlik mukofati sovrindori Shirin Yebadi ham bor edi. 1966 yilda "Eron ayollar koalisiya" tashkilotlari tashkil etildi.(8) Pahlaviylar sulolasining ohiriga (1978) kelib, ayollar Eron va Fors tarixida misli ko'rilmagan keng huquqlarga ega bo'ldilar. Shuning uchun Islom inqilobi davrida ayollar juda muhim rolni o'ynadilar. Ko'plab ayollar tashkilotlari tarkibida -ommaviy namoyishlarda qatnashdilar. 1979 yil Yanvarda Eron Islom respublikasi tashkil topgach. Oyatulloh Homeyni xokimiyat tepasiga keldi. Islom shariat qonunlarini mamlakatning yangi mafkurasi sifatida tanladi va ayollarga berilgan huquqlarning aksariyati bekor qilindi, ta'qiqlandi. Xususan Islom qadryatlariga zid ravishda ayolni zo'ravonlik va erining avtoritarizmidan himoya qiladigan "Oilani himoya qilish to'grisidagi" qonun bekor qilindi. Farruxru Parsa Inqilob paytidagi Eronning birinchi ayol vaziri qatl etildi.(9) Yangi qonun ayollardan Islomiy qoidalarga muvofiq bosh va tana a'zolarini yopishni hidjobni talab qildi. Eronning yangi hukmdori Oyatulloh Xomeyni "Ideal ayol" timsoli payg'ambar Muhammad s.a.v ning qizlari Fotima onamiz ekanligi e'lon qilindi. Ularning Eriga alohida sadoqati va taqvodorligi nazarda tutib, Xomeyni "Fotima onamiz Erondagi har bir ayol uchun namuna bo'lishi kerak"ligini aytdi.(10)

Dastlab ayollar huquqlarini cheklanishi ayollar tashkilotlari orasida ommaviy norozilikka sabab bo'ldi. Ular o'z noroziliklarini ko'cha namoyishlarida chiqishi bilan bildirdilar. Xomeyni Eronning yangi rejimiga va uning rasmiy mafkurasiga qarshi bolganlarning barchasini jazolashni buyurdi.(11) Yangi hukumat erkaklar uchun kopxotinlikka ruhsat beruvchi qonunlarni qabul qildi va ayollarni tartibni buzgani uchun jazoladi.(12)

Ayollar Eronda bugungi kunda ham boshini, ta'nani qo'llarigacha, oyog'idan to'pig'igacha yopishlari shart. Yosh avlodning ko'plab qizlari, ushbu qoidalarga faqat rasmiy

ravishda rioya qilishadigan qismi ham mavjud. Qonunga ko'ra qiz bola 9 yoshdan boshlab "yopiq kiyimda" bo'lishi kerak, ammo amalda xatto 6 yoshli qizlardan ham ta'lab qilinadi. Kiyimlar odatda to'q rang- qora rangda bo'lishi kerak. Davlat idoralari va oliy ta'limda ham faoliyat yuritayotgan ayollar ham hijobda bo'lishi talab qilinadi. Ayollarga qo'shiq aytish, erkaklar oldida raqsga tushish ham ta'qiqlanadi. Ko'pgina Eron qonunlari ayollarni nazorat qiladi. Xususan ayollarga eri yoki otasining ruhsatisiz ishlash, passport olish yoki chet elga chiqish ham ta'qiqlanadi. (13) Futbol stadionlarida ham ayollarning bo'lishi, ularning futbolda xakamlik qilishi ham ta'qiqlanadi, sababi o'yin jarayonidagi agressiv xatti-xarakatlar, haqoratlar "Ayollarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin" degan bahonalar bilan ularni uyda televizorda korishga majbur qilishadi. Jamoat transportlari ham ayollar va erkaklar transportlariga bo'linadi. (Ayollar alohida transportlardan foydalanadilar. Ayollar "Hakam bo'la olmaydilar, chunki qonunga ko'ra ta'qiqlanadi, sababi "Haddan ortiq Ayollar juda hissiyotli oqilona qaror qabul qilishga qodir emas". Xuddi shu mezonga ko'ra sudda ayolning ovozi eng past qiymatga ega. (14)

ERONDAGI BUGUNGI VAZIYAT.

Eron davlatidagi 2022-yil Sentabr oyida bo'lib o'tgan namoyishlar, mitinglar Eron tarixida 1979-yildagi Revolyutsiyalardan keyingi eng katta revolyutsiya namoyishlardan biri hisoblanadi. SHunday katta davr ichida Eronda bunday katta masshtabli namoyishlar bo'lmagan edi. 2009-yil Ekologik holatdan norozi bo'lgan xalq namoyish uyushtiradi. 2019-yilda Yoqilg'i mahsulotlarining narxi oshib ketganligi uchun ko'cha chiqishlari yuz bergan edi. Bu ham Eron tarixidagi 2022-yilgacha bo'lgan katta namoyishlarning biri sifatida e'tirof etilayotgan edi. Oldingi namoyishlardan farqli ravishda 2022-yil Sentabr oyining ikkinchi yarmida boshlangan namoyishlar bevosita rejimga qarshi qaratilgan namoyishlar hisoblanadi. Bundan oldingilari iqtisodiy ko'rinishda bo'lgan bo'lsa, bu rejimning mohiyatiga qarshi qaratilgan katta masshtabdagi namoyishlar hisoblanadi. Namoyishlarning boshlanishiga 2022-yilning 15 -Sentabrda Kurd millatiga mansub bo'lgan Maxsi Aminiyning kiyim kiyishi qoidalarini, ro'mol o'rash qoidalarini buzganligi bois ushlanganligi, Axloq politsiyasi tomonidan va tegishli uchastkaga olib borib, u yerdan hushini yoqotgan holda kasalhonaga olib borilishi va u yerdan o'lik holda olib chiqilishi butun Eronni jumbushga keltirdi. Demak 2022-yil Maxsi Amini dafn qilingandan so'ng Eronning G'arbiy hududidagi Kurdiston viloyatida bu namoyishlar boshlandi. 31 ta Eron provinsiylarining deyarli yarmidan ko'pida, ya'ni 16-17 tasida katta-katta shaharlarda bu namoyishlar aynan Maxsi Aminiyning vafoti bilan bog'liq. Shu boshlab bergan, oxirgi tomchi bo'lgan namoyishlar deyarli butun Eron bo'yicha tarqalib ketdi. Hattoki ancha diniy va ahloqiy qoidalarga rioya qiladigan "Artodoksal" Eron aholisi yashaydigon qishloq hududlarigacha ham tarqalib bordiki, yuqorida qayd etganimizdek Eron tarixidagi eng katta, hatto noyabr oyiga borib shu darajaga yetdiki, ISLOM REVOLYUTSIYASI Qo'riqchilari kuchlarini ham tashlashga majbur bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bu namoyishlarda 200 dan ortiq odamlar vafot etgan va 20 mingdan ortig'i qo'lga olingan. Namoyishlar o'rtalariga borib, shunday bir yangiliklar yangradiki, bu namoyishchilarning hammasiga o'lim

jazosini qo'llash masalasi Eron parlamentiga kiritildi. Bu yangilik namoyishchilarni nafaqat to'htatdi, balki jahlini chiqardi, norozilik kuchaydi. Qurbonlar soni-500 ta, 4 kishi qatl etildi. Bundan keyin Eron hukumati yumshash tarafiga o'tdi va Noyabr oyiga borib, Eronda Ahloq politsiyasini tugatish masalasi kun tartibiga chiqdi. Yani namoyishlar davom etdi. SHu yerda aytib o'tish joizki, Ahloq politsiyasi 2016-yilda Mahmud Axmedinajod tomonidan joriy etilgan politsiya edi. Bunga aholining ko'p qismi norozi bo'lgan keyinchalik uch oy ya'ni "Aktiv fazasi" davom etgan namoyishlar Eron hukumati tomonidan juda katta maxsus qurolli kuchlarining elitasiga tegishli bo'lgan askarlarni yuborish yani juda katta kuch ishlatish natijasida bostirildi. Agar Eronning rasmiy axborot vositalarini tinglasak, bunda Amerika Qoshma Shtatlari va G'arb undan tashqari Isroilning maxsus kuchlarining aybi borligini ularning ta'sirida xalqning ko'chaga chiqarayotganligi hamisha urg'ulanib keldi. Sentyabr oyidan 2022-yilning ohirigacha deyarli davom etgan namoyishlarda Eron hukumatini qo'llab-quvvatlagan namoyishlar ham bo'ldi. Deyarli bu ikkalasi bir hil kechdi. Eron hukumati ko'pincha o'quvchilarni, talabalarni, byudjetdan ta'minlanadigan ishxonalarining ishchilarini ko'chaga chiqardi. Agar ommaviy axborot vositalarini kuzatadigon bo'lsak, bu yerda o'zining ixtiyori bilan ishtirok etayotgan aholini ham ko'rish mumkin edi. Bugungi kunda bu namoyishlar to'xtadi. Lekin qanday o'zgarishlar yuz berdi? Tabiyki, Eron "Axloq politsiyasi" faoliyati tohtatilmadi, biroq Texronda va Eronning katta shaxarlarida bugungi kunda Axloq politsiyasi va Islom revolyutsiyasi qoriqchilari harbiylari hijobsiz yurgan ayollarga, qizlarga ham e'tiroz bildirmayotganligi aytilyapti. 2022-yilning Sentyabrgacha va bugungi holatni solishtiradigan bo'lsak, ahloq politsiyalari bir necha barobar kamaygan, sezilarli darajada erkinliklar borligi aytilyapti. Sentyabr oyida boshlangan va yilning oxirigacha davom etgan namoyishlardan oldin Eron ayollari juda ham ko'zga tashlanadigon darajada boyanish holatlari bo'lgan. Bugungi kunda bunday holatlar sezilarli darajada kamaygan. Eron ayollari bo'yanishni tohtatgan. Qiziq holatlardan biri ixtiyoriy hijob o'rab yurganlar ko'p ekan, yani hijob o'rashni majburan singdirish masalasi Axloq politsiyasini erkinlikka dahl qilayotganligini jamiyatning me'dasiga tekkanligini, muammo hijobda emas, balki siyosiy rejimning xalqqa erkinlik bermayotganligi bilan bog'liq deb hisoblash mumkin. Bu namoyishlar Eron Elitasidagi jiddiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Hattoki Ahloq politsiyasini tugatish to'g'risidagi so'zlari ham tog'ri bo'lib chiqmadi. Ahloq politsiyasi bugungi kunda o'zining qattiq faoliyatini yumshatgan. Eronda bo'lgan namoyishlarning oldingilaridan farqi. Butun dunyoga juda kuchli rezanans berdi. Amerika, Yevropada Eronda bo'lgan namoyishlarning shiori bo'lgan „AYOL-HAYOT VA ERKINLIK“, „AYOL HAYOT-OZODLIK“ kabi OVOZLAR bilan chiqishdi va hijoblarini yechib sochlarini qaychi bilan kesishdi. Mana shu o'ziga xos chiqish butun dunyoga tarqaldi. Juda katta ayol siyosatchilar Eronda 1979-yildan keyin Eron hududidan chiqib ketgan taniqli insonlar, olimlar ham sochlarini kesishdi. Mana shu jarayon Eronga katta bosim o'tkazdi. Eron rahbariyati buni to'liq AQSH ning va dushman Yevropaning Isroilning maxsus kuchlarining ta'siri ostida bo'lib turgan namoyish sifatida e'tirof etib keldi, hozir ham shu fikrda qolishgan.

2022-yil dekabr oyida Eron ayollar huquqlari va Gender tengligini ta'minlashga bag'ishlangan asosiy hukumatlar organi-BMT ning ayollar maqomi bo'yicha komissiyasidan (СПБ) chetlatilgan birinchi a'zo davlat bo'ldi. Eronni 2022-2026 yillarda qolgan muddat davomida ayollarning maqomi bo'yicha komissiyadan chiqarib tashlash to'g'risidagi rezolyutsiyasi Qo'shma SHTatlar tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy kengashida Eronning ayollar va qizlarga nisbatan zulmiga bag'ishlangan. Rezolyutsiya "Eron Islom Respublikasini 2022-2026 yillardagi a'zoligining qolgan qismida ayollarning maqomi bo'yicha komissiyadan chiqarib tashlashga qaratilgan bo'lib, Tehronning "Ayollar va qizlarning inson huquqlarini doimiy ravishda buzish va tobora ortiqcha kuch bilan bostirish harakatlaridan jiddiy tashvishlanmoqda" Hujjat 29 ta ovoz bilan, 8 ta qarshi va 16 ta betaraf ovoz bilan qabul qilindi. Ovoz berishdan oldin Eron nomidan elchi Amir Said Jalil Iravani Eron rezolyutsiyasini "qat'iy rad etadi va qattiq qoralaydi", U amerika Qo'shma SHTatlari Eronga qarshi bunday noqonuniy ishlarni amalga oshirayotgani biz uchun kutilmagan emas va bu oxiri ham emas, BMT tizimining yaxlitligi uchun juda havfli bo'ladi" deydi.

AQSH tomonidan ishlab chiqilgan Eronni SPJ dan chiqarib tashlash to'g'risidagi rezolyutsiyaga qarshi bo'lgan mamlakatlar, Rossiya, Xitoy, Xalqaro jamiyat asosan Eronlik ayollarning teng huquqlarga bo'lgan talablarini qo'llab-quvvatlaydi. Amini nomi bilan hashtaglar ijtimoiy tarmoqlarda yuz millionlab marta baham ko'rilgan. Afg'oniston, Argentina, Avstraliya, Kanada, Chili, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Livan, Koreya Respublikasi, Janubiy Afrika SHveysariya, Tunis, Turkiya, Buyuk Britaniyada hukumat zulmiga qarshi kurashayotgan Eronliklarni qo'llab-quvvatlash uchun namoyishlar bo'lib o'tdi.

XULOSA

Ayollar har qanday jamiyatda faol kuchlarning katta qatlamini tashkil qiladi. Muhammad Rizo Paxlaviyning modernizatsiya siyosati bu davrda Eronning AQSH ga qaramligini kuchaytirdi. Muhammad Rizo Pahlaviy davrida Ayollarga keng huquqlar, siyosatda o'z o'rnini topishga imkoniyatlar berildi bularni inkor etib bo'lmaydi, shu bilan birga Shoxning olib borgan modernizatsiya rejimi o'z maqsadlariga erishish uchun ayollardan foydalaniladigan rejim ham bo'ldi. Xususan 1950-1970 yillarda Eronda ayollardan qo'g'irchoq sifatida foydalanilgan. Aholi qashoqlashish darajasi ortdi va tabaqalanish rivojlandi, xalq unutildi. Hozirgi Erondagi muammolarning tarixiy ildiziga nazar tashlasak, aminmanki yechimini his qilamiz. 1963 yilda shox Rizo Pahlaviy Eronda referendum o'tkazdi. Bu referendumda Eron ayollariga G'arb ayollari kabi huquqlarni va'da qilgan Demokratiyaning g'arbona shaklini qo'llab-quvvatlaysizmi? Deb murojaat qilindi bu paytda Eron aholisi 23 million edi, shulardan 5 million aholi bu referendumga rozi bo'ldi, qolgan 18 million aholi bunga rozi bo'lmadi va ularning hohishlari inobatga olinmadi. Natijada 99.9% ovoz bilan qo'llab-quvvatlandi deb sohtalashtirildi. Oradan 16 yil vaqt o'tdi, bu orada aholi ikki qismga bo'lingan edi bir toifa G'arblashgan, ikkinchi toifa milliy qadriyatlarga sodiq Islom shariati asosida yashar edi. 1979 yil inqilobdan keyin xokimiyatga Oyatulloh Humayniy keldi va Islom shariati asosida yashashni ustuvor etib,

Eron Islom Respublikasida referendum o'tkazdi. 1979 yil fevraldan Ayollarga hijob o'rash majburiy qilib qo'yildi, bosh tortganlar jazolanishi muqarrar edi. Bu davrda aholi soni 37 millionni ko'rsatardi. Referendumda 26 million aholi rozi boldi 99,3% ovoz bilan qo'llab quvvatlandi deb sohtalashtirildi 11 million bu 30% aholini fikri inobatga olinmadi ularning fikri chetga surildi. Insonlarning barchasi eshitilmadi G'arbona hayotga hayri hoh aholini fikri inobatga olinmadi tarix takrorlandi. 1979 yildan 2022 yilgacha Eronda ichki ziddiyatlar davom etdi, vaqt o'tgan sari noroziliklar kuchaydi diniy tuzumni qabul qilmagan 16 yil ichida G'arbona hayotga konikkan aholi o'ch olish nafrat bilan yashadi. Eron bir tuzumdan boshqa bir tuzumga o'tib qoldi G'arb an'analari asosida yashayotgan Eron birdan yopiq teokratik davlatga aylandi. Maxsi Aminiy o'limi boshqa muammolarning portlashi uchun trigger bo'ldi. Bu borada rasmiy Tehronning xatosi Maxsi Aminiy o'limiga kim sababchi bolsa, xalqni oldida jazolash kerak edi, qonun ustuvorligini xalqqa korsatib berish maqsadida, ammo bunday qilinmadi. Texron xavfsizlik idoralari, Amin ud-davla, siyosatchilar holisona vaziyatga qaramadilar. Bu mojarolar Maxsi Aminiy bilan bog'liq emas. Bu yillar davomida goh kotarilib goh tushib turgan, yig'ilgan ichki ziddiyatlar Oyatulloh Homeyniy rejimiga nisbatan o'z noroziligini shu tartibda ko'rsatdi. Afsuski, Muammolarning boshi odamlarni eshitmaslikdan kelib chiqadi, 1963 yil bir toifa aholi eshitilmagan bo'lsa, 1979 yilda ikkinchinci toifa eshitilmadi. Islom inqilobi g'alaba qozonganiga 44 yil bo'lgan bo'lsa ham hozirgi Eron jamiyati to'liq islomiy va qonuniy bo'lgan emas, ayollarga nisbatan Islom normalariga aniq rioya qilishni belgilab beruvchi qonunlar talablariga vaziyat hamon javob bermaydi, Bu kabi noroziliklarga chek qo'yish uchun avvalo zamonaviy Eron jamiyatida, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasida yangi qonunlar ishlab chiqish. Oila va maishiy munosabatlarda gender tengligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarida ayollarning erkinliklarini kafolatlash lozim. Bularning ijrosini Ichki ishlar va Adliya organlariga yuklash katta ahamiyatga ega. Bu voqealardan tog'ri hulosa chiqarish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR;

1. Sanasarian, Eliz. *The Women's Rights Movements in Iran*, Praeger, New York: 1982, ISBN 0-03-059632-7.

1. ↑ [Перейти обратно:1 2 3 4 5 Women in pre-revolutionary, revolutionary and post-revolutionary Iran.](#) Дата обращения: 28 мая 2015. Архивировано 31 марта 2020 года.

2. ↑ Pappé, Ilan (англ.)рус.. *The Modern Middle East*. — Routledge, 2005. — С. 237. — ISBN 0-415-21408-4.

3. ↑ Wright, Robin B. *The Last Great Revolution*. — 2000. — С. 156. — ISBN 978-0-375-40639-3.

4. ↑ Azadeh Kian. Gendered citizenship and the women's movement in Iran // Iran: A Revolutionary Republic in Translation (англ.) / Rouzbeh Parsi. — Paris: Institute for Security Studies European Union, 2012. — ISBN 978-92-9198-198-4.
5. ↑ Broadening Muslim Tradition: Bringing Family Planning to Iran (англ.).
6. ↑ Iranian Women in the Era of Modernization: A Chronology. Foundation for Iranian Studies. Bethesda, MD, USA: Foundation for Iranian Studies. Дата обращения: 29 апреля 2010. Архивировано 28 апреля 2019 года.
7. ↑ An Introduction to the Women's Organization of Iran. Foundation for Iranian Studies. Bethesda, MD, USA: Foundation for Iranian Studies. Дата обращения: 29 апреля 2010. Архивировано 9 июля 2018 года.
8. ↑ Majid Mohammadi. Iranian Women and the Civil Rights Movement in Iran: Feminism Interacted (PDF). Journal of International Women's Studies (сентябрь 2007). Дата обращения: 27 июня 2016. Архивировано 30 мая 2016 года.
9. ↑ Hansen, Liane. Executed But Not Forgotten: Iran's Farrokhroo Parsay, NPR (23 августа 2009). Архивировано 24 июля 2018 года. Дата обращения: 22 апреля 2010.
10. ↑ Sanasarian 136
11. ↑ Adult education offers new opportunities and options to Iranian women. Ungei.org (6 марта 2006). Дата обращения: 20 мая 2013. Архивировано из оригинала 5 октября 2018 года.
12. ↑ Sanasarian, Eliz. The Women's Rights Movements in Iran. — New York: Praeger, 1982. — ISBN 0-03-059632-7.
13. ↑ Sanasarian, Eliz. The Women's Rights Movements in Iran. — New York: Praeger, 1982. — С. 131—136. — ISBN 0-03-059632-7.
14. ↑ Перейти обратно:1 2 3 4 5 Иранки. Ограничения и запреты. Заметки о жизни и быте иранских женщин. Частный корреспондент (1 июля 2009). Дата обращения: 26 июля 2016. Архивировано 5 апреля 2016 года.
15. ↑ Mackey, Sandra & Harrop, Scott. The Iranians: Persia, Islam and the Soul of a Nation (англ.). — Penguin (англ.)рус., 1996. — ISBN 0-452-27563-6.
16. ↑ Iranian woman dies 'after being beaten by morali
17. 1.Xayde Mogite "1979 yil inqilob va Ayollar" 2018 yil.1-1nashri.Zagros